

**BOTANIKA INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.02/30.12.2019.B.39.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**BOTANIKA INSTITUTI**

**ORTIQOV ISLOM ZIYODULLA O‘G‘LI**

**ZOMINSUV HAVZASI YUKSAK O‘SIMLIKLARINING PATOGEN  
MIKROMITSETLARI**

**03.00.05 – Botanika**

**BIOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2023**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)**

**Ortiqov Islom Ziyodulla o‘g‘li**

Zaminsuv havzasi yuksak o‘simliklarining patogen mikromitsetlari..... 3

**Ортиков Ислон Зиёдулла угли**

Патогенные микромицеты сосудистых растений бассейна реки  
Зааминсу ..... 21

**Ortikov Islom Ziyodulla ogli**

Pathogenic micromycetes of vascular plants of the Zaaminsuv River  
basin..... 39

**E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati**

Список опубликованных работ  
List of published works ..... 43

**BOTANIKA INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.02/30.12.2019.B.39.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**BOTANIKA INSTITUTI**

**ORTIQOV ISLOM ZIYODULLA O‘G‘LI**

**ZOMINSUV HAVZASI YUKSAK O‘SIMLIKLARINING PATOGEN  
MIKROMITSETLARI**

**03.00.05 – Botanika**

**BIOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2023**

**Biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2021.3.PhD/B631 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Botanika institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus va ingliz (resume)) Ilmiy kengash veb sahifasida ([www.botany.uz](http://www.botany.uz)) hamda «ZiyoNet» Axborot-ta'lim portalida ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Mustafayev Ilyor Muradullayevich**  
biologiya bo'yicha falsafa fanlari doktori, (PhD)

**Rasmiy opponentlar:**

**Raximova Tashxanim**  
biologiya fanlari doktori, professor

**Kamilov Shuxrat Ganiyevich**  
biologiya fanlari nomzodi, dotsent

**Yetakchi tashkilot:**

**Samarqand davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Botanika instituti huzuridagi DSc.02/30.12.2019.B.39.01 raqamli Ilmiy kengashning 2023-yil "26" dekabr kuni soat 14<sup>00</sup> dagi majlisida bo'lib o'tdi. (Manzil: 100125, Toshkent shahri, Do'rmon yo'li ko'chasi, 32-uy. Botanika instituti majlislar zali. Tel.: (+99871) 262-37-95, faks (+99871) 262-79-38, E-mail: [botany@academy.uz](mailto:botany@academy.uz)).

Dissertatsiya bilan Botanika instituti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (57-raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100125, Toshkent shahri, Do'rmon yo'li ko'chasi, 32-uy, Tel.: (+99871) 262-37-95.

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil "15" kuni tarqatildi.  
(2023-yil "15" dekabr 8-raqamli reyestr bayonnomasi).



*[Handwritten signatures in blue ink]*

**K.Sh. Tojibayev**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, b.f.d., akademik

**U.H. Qodirov**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi, b.f.f.d. (PhD), katta ilmiy xodim

**F.I. Karimov**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, b.f.d.

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Dunyodagi global iqlim o'zgarishlari, cho'llanish darajasini ortib borishi hamda insoniyatning tabiatga noto'g'ri munosabatda bo'lishi o'simliklar olamiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Ushbu holat, rivojlanishi o'simliklar dunyosi bilan uzviy bog'liq bo'lgan ayrim saprotrof mikromitsetlarning parazitlik shakliga o'tishi yoki patogen mikromitsetlarning yangi xo'jayin o'simliklarga moslashib borishi natijasida yangi kasallik turlarining paydo bo'lishiga olib kelmoqda. Bu ayniqsa, o'simliklar xilma-xilligiga boy bo'lgan muhofaza qilinadigan tabiiy hududlarda ko'proq kuzatilayotganligi bilan ahamiyatlidir.

Dunyo aholisining demografik o'sib borishi, oziq-ovqat va tabiiy dorivor mahsulotlariga bo'lgan talabning oshishi nafaqat qishloq xo'jaligi ekinlari, balki tabiiy hududlarda tarqalgan dorivor va ozuqabop o'simliklardan iqtisodiyot tarmoqlarida oqilona foydalanish zaruratini oshiradi.

Bugungi kunda qishloq xo'jalik ekinlarining patogen mikromitsetlarini o'rganish asosida kasallik qo'zg'atuvchi zamburug'larga qarshi samarali kurash choralarini ishlab chiqishga qaratilgan ko'plab tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Biroq, muhofaza qilinadigan tabiiy hududlarda bu kabi tadqiqotlar yetarli darajada olib borilmayotganligi sababli, ushbu hududlar fitopatogen mikromitsetlar qo'zg'atadigan turli kasallik o'choqlariga aylanib bormoqda.

Hozirda Respublikamizda muhofaza qilinadigan tabiiy hududlaridagi o'simliklar dunyosini muhofaza qilish, ulardan iqtisodiyot tarmoqlarida oqilona foydalanish va ularning parazit organizmlariga qarshi kurash choralarini ishlab chiqishga katta e'tibor qaratilmoqda. "Atrof-muhitni muhofaza qilish hamda ekologik nazorat sohasidagi davlat organlari faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Prezident Qarorida.<sup>1</sup> "...biioxilmaxillikni asrash, tiklash va ko'paytirishning aniq mexanizmlari..." kabi muhim vazifalar belgilab berilgan.

Shu sababli, Zominsuv havzasi yuksak o'simliklarining patogen mikromitsetlarini tur tarkibini aniqlash, mavsumiy rivojlanishi va tik mintaqalar bo'yicha tarqalishini asoslash, zamburug'lar bilan xo'jayin o'simliklarni zararlash mexanizmlarini o'rganish va zararlilik darajasi yuqori bo'lgan turlarga qarshi ilmiy asoslangan kurash choralarini ishlab chiqish muhim ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Ushbu dissertatsiya tadqiqoti O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 13-oktabrdagi PQ-4861-sonli "O'simliklar karantini bo'yicha davlat xizmati faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi Qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 7-noyabrdagi "Hayvonot va o'simlik dunyosi obyektlarining davlat hisobini, ulardan foydalanish hajmlari hisobini hamda davlat kadastrini yuritish to'g'risida" 914-sonli, 2019-yil 11-iyundagi 484-sonli "2019-2028 yillar davrida O'zbekiston Respublikasida biologik xilma-xillikni saqlash strategiyasini tasdiqlash to'g'risida" qarorlari va

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 30-dekabrdagi PQ-76-son "Atrof-muhitni muhofaza qilish hamda ekologik nazorat sohasidagi davlat organlari faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori.

boshqa me'yoriy hujjatlarda belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlashga muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining V. "Qishloq xo'jaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Yuksak o'simliklar patogen mikromitsetlarining taksonomik tarkibi, xo'jayin o'simliklar bilan o'zaro munosabatlarini o'rganishga bag'ishlangan tadqiqotlar xorijiy davlatlarda R.R. Matiello et al. (1997), T.R. Parashurama (2013), F.G. Noguez (2014), D. Dutta et al. (2014), L.I. Adamska (2019), K.M. Pollard et al. (2020), L. Wang et al., (2021), M. Avan (2021), P. Zhao et al. (2021), S. Fraser et al. (2021), Y. Ono et al. (2021) va boshqalar, MDH mamlakatlarida M.A. Tomoshevich va boshq. (2017), Y.V. Raximova (2017), A.I. Nasonov (2019), A.M. Beksultanova (2019) va boshqalarning ishlarida ko'rish mumkin. O'zbekistonda bu kabi tadqiqotlar N.G. Zaprometov (1926-1928), P.N. Golovin (1941), T.K. Rotkevich (1960), T.S. Panfilova (1963), N.I. Gaponenko (1965), F.G. Axmedova (1966), S.S. Ramazanova (1975), Y.S. Soliyeva (1989), Y.S. Soliyeva va boshq. (1998), Sh.G. Kamilov (1991), X.X. Nuraliyev (1998), Y.Sh. G'afforov (2005), I.M. Mustafaev (2018), J.P. Sherqulova (2018) va boshqalar tomonidan olib borilgan.

Tadqiqot hududidagi ilk mikologik gerbariy namunalari L.A. Lebedeva (1936) tomonidan terilgan. 1956-1960 yillarda T.K. Rotkevich tomonidan Zomin davlat qo'riqxonasida olib borilgan tadqiqotlarda zamburug'larning 225 turi va 34 formasi aniqlangan. Ulardan, 12 turini makromitsetlar, 40 turini esa saprotrof mikromitsetlar tashkil etganligi haqida ma'lumotlar keltirilgan. Hozirda O'zR FA Botanika instituti Mikologiya va algologiya laboratoriyasining (TASM) fondida 1936-1960 yillarda terilgan 2 bo'lim 5 sinf 10 tartib 15 oila 22 turkumga mansub 49 turdan iborat 92 ta mikologik gerbariy namunalari saqlanmoqda.

Navbatdagi tadqiqotlar 2018-2020 yillarda O'zR FA Botanika instituti Mikologiya va algologiya laboratoriyasi xodimlari tomonidan PZ-20170921183 «Shimoliy Turkiston botanik-geografik rayoni dorivor o'simliklarining zang zamburug'lari va ularning tarqalish xaritasini tuzish» amaliy loyihasi doirasida olib borilgan. Tadqiqotlar davomida Zomin Milliy tabiat bog'i va Zomin qo'riqxonasi hududlaridagi dorivor o'simliklarda 60 tur zang, 95 turdagi boshqa patogen makro va mikromitset zamburug'lar aniqlanib, ular o'simliklarning 31 oila 92 turkumga mansub 135 turida uchraganligi qayd etilgan. Mazkur loyihada asosiy e'tibor zang zamburug'lariga qaratilgan. Ammo, o'rganilayotgan hudud o'simliklarga boyligi bilan ajralib turishini inobatga oladigan bo'lsak, yuqorida keltirilgan mikologik tadqiqotlar hududda tarqalgan yuksak o'simliklar fitopatogen mikromitsetlarining hozirgi zamonaviy holatini to'liq yoritib bera olmaydi. Shu sababli, Zominsuv havzasi yuksak o'simliklari patogen mikromitsetlarini taksonomik tahlil qilish, mavsumiy rivojlanishini ochib berish, tik mintaqalar bo'yicha tarqalishini asoslash, xo'jalik ahamiyatga ega bo'lgan o'simliklarga kuchli zarar yetkazish salohiyatiga ega bo'lgan zamburug'larni aniqlash va ularga qarshi samarali profilaktik kurash choralarini ishlab chiqish muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.

## **Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi.**

Dissertatsiya tadqiqoti Botanika instituti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining “PZ-20170921183 «Shimoliy Turkiston botanik-geografik rayoni dorivor o‘simliklarining zang zamburug‘lari va ularning tarqalish xaritasini tuzish” (2018-2020) mavzusidagi amaliy loyiha tadqiqotlari bilan uzviy bog‘liq.

### **Tadqiqotning maqsadi**

Zominsuv havzasi yuksak o‘simliklarining patogen mikromitsetlarini keng ko‘lamda tahlil qilish va xavfli patogen mikromitset turlariga qarshi samarali profilaktik kurash choralarini ishlab chiqishdan iborat.

### **Tadqiqotning vazifalari:**

Zominsuv havzasi yuksak o‘simliklarning patogen mikromitsetlarini tur tarkibini aniqlash va taksonomik tahlil qilish;

yuksak o‘simliklarning patogen mikromitsetlarini tik mintaqalari bo‘yicha tarqalishi va mavsumiy rivojlanishini tahlil qilish;

patogen mikromitsetlarni o‘simlik turlari, turkum va oilalari bo‘yicha tarqalishini o‘rganish;

yuksak o‘simliklarni patogen mikromitsetlar bilan zararlanish darajasini baholash va xavfli turlariga qarshi samarali profilaktik kurash choralarini ishlab chiqish.

**Tadqiqotning obyekti** Zominsuv havzasi yuksak o‘simliklarida tarqalgan patogen mikromitsetlar hisoblanadi.

**Tadqiqotning predmeti** Zominsuv havzasidan yig‘ilgan mikologik gerbariy namunalari, yuksak o‘simliklari patogen mikromitsetlarining taksonomiyasi, mavsumiy rivojlanishi va tik mintaqalari bo‘yicha tarqalishi hamda zararlilik darajalari hisoblanadi.

**Tadqiqotning usullari.** Dissertatsiya ishini bajarishda mikologik, fitopatologik, marshrutli dala tadqiqot usullaridan foydalanilgan.

### **Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

Zominsuv havzasi yuksak o‘simliklarida patogen mikromitsetlarning 3 bo‘lim 8 sinf 18 tartib 36 oila 76 turkumiga mansub 275 tur 40 forma va 2 variatsiyasi aniqlangan;

ilk bor tadqiqot hududi uchun patogen mikromitsetlarining 3 bo‘lim 7 sinf 11 tartib 14 oila 30 turkumga mansub 61 tur 11 formasi, O‘zbekiston mikrobiotasi uchun 6 turi qayd etilgan;

patogen mikromitsetlarning tik mintaqalari bo‘yicha tarqalishi hamda mavsumiy rivojlanishi ochib berilgan;

mikromitsetlarning 2 bo‘lim 3 sinf 6 tartib 6 oila 13 turkumga mansub 25 tur va 3 formasi yangi xo‘jayin o‘simliklarida uchrashi aniqlangan;

ilk bor O‘zbekiston hududida Qizil kitobga (2019) kiritilgan *Platanus orientalis* L. da un-shudring, *Tulipa korolkowii* Regel va *Eremurus aitchisonii* Baker larda zang kasalliklari qayd etilgan.

### **Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

Tadqiqot hududida qayd etilgan 275 tur, 40 forma va 2 variatsiyadan iborat patogen mikromitsetlarning MS Exel ma‘lumotlar bazasi tuzilgan, dorivor va

xo‘jalik ahamiyatiga ega bo‘lgan o‘simliklarni mikromitsetlar bilan zararlanish mexanizmlari ochib berilgan va qarshi kurash choralarini olib borish uchun tavsiyalar ishlab chiqilgan;

o‘simliklarga kuchli zarar yetkazish salohiyatiga ega bo‘lgan mikromitsetlarining tarqalishini aks ettiruvchi GAT xaritalari tuzilgan;

*Juniperus L.* va *Crataegus L.* turkumlari turlarida zang kasalligini keltirib chiqaruvchi *Gymnosporangium confusum* Plowr ning bioekologik xususiyatlaridan kelib chiqqan holda unga qarshi samarali profilaktik kurash uslubi ishlab chiqilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Laboratoriya va dala tadqiqotlarida zamonaviy uslublardan foydalanilganligi, olingan natijalarining mahalliy va yetakchi xorijiy nashrlarda chop etilganligi, amaliy natijalar sohaga oid davlat organlari tomonidan tasdiqdan o‘tkazilganligi, Intelektual mulk agentligidan foydali model sifatida patent olinganligi, mikologik gerbariy namunalari Botanika instituti Mikologiya va algologiya laboratoriyasining (TASM) fondida saqlanayotganligi bilan izohlanadi.

#### **Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.**

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati Zominsuv havzasi yuksak o‘simliklarida tarqalgan patogen mikromitsetlarning taksonomik tarkibi aniqlanganligi, O‘zbekiston mikobiotasi uchun yangi mikromitset turlari va yangi xo‘jayin o‘simliklarining qayd etilganligi, patogen mikromitsetlarning mavsumiy rivojlanishi, tik mintaqalari, xo‘jayin o‘simlik turlari, turkumlari va oilalarida tarqalishi asoslanganligi bilan izohlanadi.

Natijalarining amaliy ahamiyati o‘rmon xo‘jaliklari, milliy tabiat bog‘lari va qo‘riqxonalar hududlari yuksak o‘simliklarida patogen mikromitsetlar keltirib chiqaradigan kasalliklarini aniqlash, Oliy ta‘lim va kasb-hunar maktabi talabalari uchun “O‘rmon fitopatologiyasi”, “Dorivor o‘simliklarni kasallik va zararkunandalardan himoya qilish” kabi darsliklarni tayyorlashda, muhofaza qilinadigan tabiiy hududlarda tarqalgan iqtisodiy ahamiyatga ega bo‘lgan o‘simliklarning zamburug‘li kasalliklariga qarshi kurash chora-tadbirlarini takomillashtirishga xizmat qilishi bilan asoslanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Zominsuv havzasida olib borilgan mikologik tadqiqotlardan olingan natijalar asosida:

Zominsuv havzasida asosiy o‘rmon hosil qiluvchi *Juniperus L.* turkumi vakillarida zang kasalligini keltirib chiqaruvchi *Gymnosporangium R.Hedw. ex DC.* turlarini oraliq xo‘jayin o‘simliklarida tarqalishini aks ettiruvchi GAT xaritasi Zomin milliy tabiat bog‘ining amaliy faoliyatiga joriy etilgan (O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligining 2023-yil 20-iyuldagi 03-03/3-2989-son ma‘lumotnomasi). Natijada, Zominsuv havzasida tarqalgan *Juniperus L.* vakillarini zararlash xususiyatiga ega bo‘lgan *Gymnosporangium turkestanicum*, *G. confusum*, *G. fusisporum* larni etsiosporalarining asosiy qismi hosil bo‘luvchi nuqtalarini aniqlash va erta bosqichda tashxislash imkonini bergan.

*Juniperus L.* va *Crataegus L.* turlarida zang kasalligini keltirib chiqaruvchi *Gymnosporangium confusum* ning yuqish zanjirini uzish bo‘yicha ishlab chiqilgan profilaktik uslub Zomin Milliy tabiat bog‘i va Zomin davlat o‘rmon xo‘jaligining

amaliy faoliyatiga joriy etilgan (O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligining 2023-yil 20-iyuldagi 03-03/3-2989-son ma’lumotnomasi). Natijada, muhofaza qilinadigan hududlarda tarqalgan *Juniperus* va *Crataegus* turlarida zang kasalligini aniqlash va himoya qilish imkonini bergan;

tabiiy hududlarda tarqalgan archa va do‘lananing zang kasalligini profilaktika qilish uslubi uchun O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Intelektual mulk markazidan foydali model patenti (31.08.2023, № FAP 02306) olingan. Natijada, tabiiy muhitda tarqalgan archa va do‘lana turlarini zang kasalligidan himoya qilish imkonini bergan.

Zominsuv havzasi yuksak o‘simliklari patogen mikromitsetlarining 642 ga yaqin mikologik gerbariy namunalari O‘zR FA Botanika instituti Noyob obyekti Mikologik gerbariy (TASM) fondiga topshirilgan. Natijada, Zominsuv havzasi yuksak o‘simliklaridan yig‘ilgan mikologik gerbariy namunalari noyob obyekt fondini boyitgan va O‘zbekistonning muhofaza qilinadigan tabiiy mintaqalarida tarqalgan patogen mikromitsetlarning elektron ma’lumotlar bazasini tayyorlashda foydalanish imkonini bergan (O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining 2023-yil 18-avgustdagi №4/1255-1749-son ma’lumotnomasi).

**Tadqiqot natijalarining aprobsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 6 ta Respublika ilmiy-anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinishi.** Mazkur dissertatsiya mavzusi doirasida jami 16 ilmiy ish nashr etilgan bo‘lib, shundan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 7 ta maqola, shu jumladan, 4 ta Respublika, 3 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan, 1 ta foydali modelga patent olingan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, to‘rtta bob, xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati hamda ilovalardan iborat. Dissertatsiya hajmi 119 betdan tashkil topgan.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish qismida** olib borilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zarurati, muammoning o‘rganilganlik darajasi, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obyekt va predmetlari to‘liq tavsiflangan, mavzuning Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy va amaliy yangiliklari ochib berilgan, olingan natijalarni amaliyotga joriy qilinishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning “**Mikologik tadqiqotlarning hozirgi holati**” deb nomlangan birinchi bobida mikologik tadqiqotlarning qisqacha sharhi, zamonaviy tadqiqot metodlarining qo‘llanilishi, Zominsuv havzasining tabiiy-geografik sharoitlari yoritilgan.

Bobning birinchi bo‘limida yuksak o‘simliklar mikromitsetlari bo‘yicha xorijda va O‘zbekistonda olib borilgan ilmiy-tadqiqot natijalari tahlil qilingan. Jumladan, O‘zbekistondagi mikologik tadqiqotlar N.G. Zaprometov (1926-1928), P.N. Golovin (1935-1945), N.I. Gaponenko (1954), B.D. Kleyner (1958),

T.K. Rotkevich (1960), T.S. Panfilova, N.I. Gaponenko (1963), F.G. Axmedova (1965), Y.S. Soliyeva (1989), Sh.G. Kamilov (1991), X.X. Nuraliyev (1998), Y.Sh. G'afforov (2005), I.M. Mustafayev (2018), J.P. Sherqulova (2018) ishlaridagi ma'lumotlar asosida yoritilgan.

Bobning ikkinchi bo'limida tadqiqot obyekti va 2021-2023 yillar davomida qo'llanilgan tadqiqot uslublari haqida ma'lumotlar berilgan. Tadqiqotlar ikki bosqichda olib borilgan, dala tadqiqotlari davomida patogen mikromitsetlar bilan zararlangan o'simliklardan namunalar yig'ish, laboratoriya sharoitida zamburug' turlarini identifikatsiya qilish. Uchinchi bo'limda Zominsuv havzasi hududining tabiiy-geografik xususiyatlari bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Zominsuv havzasi yuksak o'simliklari patogen mikromitsetlarining taksonomik tahlili”** deb nomlangan ikkinchi bobi tadqiqot hududida aniqlangan patogen mikromitsetlarning taksonomik tahliliga bag'ishlangan bo'lib besh bo'limni o'z ichiga oladi.

Zominsuv havzasi hududida olib borilgan mikologik tadqiqotlar davomida yuksak o'simliklarda patogenlik qiluvchi mikromitsetlarning 3 bo'lim 8 sinf 18 tartib 36 oila 76 turkumiga mansub 275 tur 40 forma va 2 variatsiyasi qayd etildi (1-jadval).

### 1-jadval

#### Zominsuv havzasi yuksak o'simliklari mikromitsetlarining taksonomik tarkibi

Bo'lim	Taksonlar soni						
	sinf	tartib	oilala	turkum	tur	forma	variatsiya
Ascomycota	4	13	25	59	181	40	2
Basidiomycota	3	3	9	13	90	-	-
Oomycota	1	2	2	4	4	-	-
<b>Jami:</b>	<b>8</b>	<b>18</b>	<b>36</b>	<b>76</b>	<b>275</b>	<b>40</b>	<b>2</b>

Olib borilgan tahlillarga ko'ra, Ascomycota bo'limiga mansub mikromitsetlarning 59 turkum 181 tur 40 forma va 2 variatsiyasi qayd etilib umumiy aniqlangan patogenlarning (64,71%) ini, Basidiomycota bo'limi 13 turkum 90 tur (33,81%) ini, Oomycota bo'limi 4 turkum 4 tur (1,45%) ini tashkil etishi aniqlandi.

Bobning birinchi bo'limida Ascomycota bo'limiga mansub patogen mikromitsetlarning taksonomik tahlili o'rin olgan, unga ko'ra, Dothideomycetes sinfi 7 tartib 14 oila 34 turkum 118 tur (1 forma) bilan bo'limga mansub turlarning 65,19% ini, jami aniqlangan patogen mikromitsetlarning 42,90% ini, Leotiomycetes sinfi 2 tartib 6 oila 16 turkum 49 tur (39 forma, 2 variatsiya) 27,07 % yoki 17,81% ini, Sordariomycetes sinfi 3 tartib 6 oila 8 turkum 13 tur bilan 7,30 % yoki 4,72 % ini, Taphrinomycetes sinfidan 1 tartib 1 oila 1 turkum 1 tur bilan 0,56% yoki 0,36% qismini tashkil etishi keltirilgan. Mikromitsetlarning tartiblar bo'yicha tahlillariga ko'ra, Mycosphaerellales 9 turkum 58 tur (1 forma), Helotiales 15/48 (39 forma, 2 variatsiya), Pleosporales 13/32 bilan yetakchilik qildi. Turlar soni bo'yicha yetakchi oilalarni Mycosphaerellaceae 59 tur, Erysiphaceae 36 (39 forma 2 variatsiya), Didymellaceae 15, Phyllostictaceae 13

tashkil etdi. Tahlillarga ko‘ra, yetakchi turkumlar sifatida *Erysiphe* 16, *Septoria* 15, *Phyllosticta* 12, *Leveillula* 9, *Phoma* 7 turkumlari qayd etildi.

Ascomycota bo‘limi vakillari orasida piknidiali va un-shudring zamburug‘lari turlar soni jihatidan yetakchilik qilishi O‘rta Osiyo va O‘zbekistonda mikobiotasi uchun xos xususiyatlardan biri hisoblanadi (Приходько 1987, Анналиев 1991, Soliyeva, G‘afforov 2002, G‘afforov 2005, Mustafaev, Nuraliyev 2012, Mustafaev 2014).

Bobning ikkinchi bo‘limida Basidiomycota bo‘limining taksanomik tahlili keltirilgan. Ushbu bo‘limidan 3 sinf 3 tartib 9 oila 13 turkumga mansub 90 tur patogen mikromitsetlar aniqlandi. Mikromitsetlarning sinflar bo‘yicha taqsimlanishiga ko‘ra, Pucciniomycetes sinfi 1 tartib 5 oila 8 turkum 80 turni o‘z ichiga olib yetakchilik qilishi va Basidiomycota bo‘limiga mansub turlarning 88,88 % ini, umumiy turlarning 29,09% ini tashkil etishi keltirildi. Navbatdagi o‘rinlarni mos ravishda Ustilaginomycetes (1 tartib 3 oila 4 turkum 9 tur) va Exobasidiomycetes (1 tartib 1 oila 1 turkum 1 tur) sinflari egalladi. Tahlil natijalariga ko‘ra, yuqorida keltirilgan sinflarning har birida bittadan tartiblar mavjudligi qayd etildi, shu sababdan tartiblardagi turlar soni sinflardagi ko‘rsatkichdan farq qilmadi. Olilarda turlar soni bo‘yicha yetakchilik Pucciniaceae oilasi kuzatildi. Mazkur oila vakillari 63 tur bilan Basidiomycota bo‘limining 72,22% ini, umumiy turlarning 23,63% ini tashkil etishi aniqlandi. Turkumlarda yetakchilar qatoriga *Puccinia* (46 tur), *Uromyces* (12), *Phragmidium* (9) kiritildi.

Zang kasalligini keltirib chiqaruvchi zamburug‘lar orasida *Puccinia* turkumi yaqqol yetakchilik qildi, bu holat, Markaziy Osiyo va O‘zbekiston mikoflorasi uchun xos xususiyat hisoblanadi (Роткевич 1960, Панфилова, Гапоненко 1963, Mustafaev 2016, Rakhimova et al. 2017).

Zang zamburug‘lari rivojlanish bosqichlari bo‘yicha tahlil qilinganda, tadqiqot hududida zang zamburug‘larining Hemi-37 tur (41,9%), Micro-14 tur (17,2) formalari yetakchilik qilishi aniqlandi (2-jadval).

## 2-jadval

Zang zamburug‘larining rivojlanish bosqichlari tahlili

Formalar	Turkumlar								Jami	% hisobida
	<i>Aecidium</i>	<i>Puccinia</i>	<i>Uromyces</i>	<i>Hyalopsora</i>	<i>Gymnosporangium</i>	<i>Melampsora</i>	<i>Phragmidium</i>	<i>Tranzschelia</i>		
Eu (0-I-II-III)	-	6	1	-	-	-	5	-	12	14,8
Brachy (0-II-III)	-	3	-	-	-	-	-	-	3	3,70
Hemi (II-III)	-	20	9	1	-	5	1	1	37	41,9
Opsi (0-I-III)	-	5	1	-	3	-	2	-	11	13,5
Micro (III)	-	12	1	-	-	-	1	-	14	17,2
Endo (0-I)	4	-	-	-	-	-	-	-	4	4,93
Jami:	4	46	12	1	3	5	9	1	81	100

Bu holat, Markaziy Osiyo, xususan, O'zbekistonda tarqalgan zang zamburug'lari uchun xos ko'rsatkich ekanligi qayd etilgan (Рахимова 2015, Gafforov et al., 2016).

Bobning uchinchi bo'limida Oomycota bo'limiga mansub patogen mikromitsetlar tahlil qilingan. Ushbu bo'limdan 1 sinf 2 tartib 2 oila 4 turkumga mansub 4 tur aniqlandi. Mazkur bo'lim vakillarini Zominsuv havzasida kam tarqalganligini balandlik mintaqalari ortib borgan sari Oomycota turlari xilma-xilligi kamayib borishi bilan izohlash mumkin Т.К. Роткевич (1960), X.X. Nuraliyev (1998).

Bobning to'rtinchi bo'limida O'zbekiston mikobiotasi uchun yangi turlar to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan. Tadqiqot hududidan terilgan mikologik gerbariy namunalarini o'rganish, sohaga oid monografiya va ilmiy manbaalarni o'zaro qiyosiy tahlil qilish asosida patogen mikromitsetlarning 6 turi O'zbekiston mikobiotasi uchun ilk bor qayd etildi (3-jadval).

### 3-jadval

#### O'zbekiston mikobiotasi uchun yangi patogen mikromitset turlari


№	Xo'jayin o'simlik turlari	Patogen mikromitset turlari
1	<i>Platanus orientalis</i> L.	<i>Erysiphe platani</i> (Howe) U. Braun.
2	<i>Thinopyrum intermedium</i> subsp. <i>intermedium</i>	<i>Dilophospora alopecuri</i> (Fr.) Fr.
3	<i>Malva neglecta</i> Wallr.	<i>Phyllosticta destructiva</i> Desm.
4	<i>Cynanchum acutum</i> subsp. <i>sibiricum</i> (Willd.) Rech.f.	<i>Ascochyta fagopyri</i> Bres.
5	<i>Tragopogon coelesyriacus</i> Boiss.	<i>Phoma tragopogonis</i> Hollós.
6	<i>Ligustrum</i> sp.	<i>Erysiphe ligustri</i> (Homma) U. Braun va S. Takam.

*Erysiphe platani* - *Platanus orientalis* ning barglari va yosh novdalarni zararlaydi (1-rasm). Tadqiqotlar davomida patogenning telemorf bosqichi qayd etilmadi. Hozirda *E. platani* dunyoning 41 davlatida aniqlangan, shundan, 19 mamlakatda telemorf bosqichi kuzatilgan. Osiyoda esa Suriya, Xitoy, Eron, Janubiy Koreya va Yaponiyada patogenning uchrashi haqida ma'lumotlar keltirilgan, telemorf bosqichi Xitoy hamda Yaponiyada aniqlangan (Pastirčáková et al. 2014). Adabiyot manbaalarida Markaziy Osiyo davlatlarida *Erysiphe platani* uchrashi haqida ma'lumotlar keltirilmagan.

Bobning beshinchi bo'limida Zominsuv havzasi yuksak o'simliklari patogen mikromitsetlari biotasining boshqa mintaqalar bilan qiyosiy tahlillari to'g'risida so'z boradi. Havza yuksak o'simliklarining patogen mikromitsetlarini tahlil qilish, ularning o'ziga xos xususiyatlarini ochib berish va boshqa mintaqalar biotasi bilan o'xshashlik darajalarini aniqlash maqsadida Namangan (G'afrov 2005), Surxondaryo (Soliyeva 1989) viloyatlari hamda Nurota qo'riqxonasi (Mustafaev 2018) mikobiotasi bilan taqqoslandi. Molekular biologiya sohasining rivojlanishi va molekular-genetik tadqiqotlarning mikologiyada keng qo'lanilishi zamburug'lar sistematikasida bir qator taksonomik o'zgarishlar bo'lishiga olib keldi. Shu sababdan, qiyosiy tahlillar turkum va turlar misolida olib borildi. Tanlab olingan mintaqalarda qayd etilgan mikromitsetlarining 10 yetakchi turkumlari

asosida hududlar mikobiotasini o‘xshashlik koeffitsiyenti P. Jaccard (1901) formulasi yordamida aniqlandi. Tadqiqot hududi bilan Nurota qo‘riqxonasi biotasining o‘xshashlik koeffitsiyenti turkumlarda 0,51% ni turlarda esa 0,41% ni, Namangan viloyati mikobiotasida bu nisbat 0,30%/0,25%, Surxondaryo viloyatida esa 0,27%/0,23% ni tashkil etishi aniqlandi.

Nurota qo‘riqxonasi va Zomin davlat qo‘riqxonasi mikobiotasi sistematiik tarkibining o‘xshashlik koeffitsiyenti turkumlarda 0,41% ni, turlarda 0,23% ni tashkil etgan. Muallif tomonidan bu holat, Zomin davlat qo‘riqxonasida mikologik tadqiqotlarning yetarli darajada olib borilmaganligi bilan asoslangan (Mustafaev 2018). Zominsuv havzasining cho‘l, adir, tog‘ va yaylov mintaqalarida olib borilgan tadqiqotlar natijalariga ko‘ra, ushbu ikki hudud mikobiotasining o‘xshashlik koeffitsiyenti turkumlarda 0,51%, turlarda 0,41% ekanligi qayd etildi. Mazkur holatni muayyan hudud mikobiotasi tarkibining shakllanishida balandlik mintaqalari, o‘simliklar qoplami va ekologik omillar muhim ahamiyat kasb etishi bilan izohlash mumkin.



**1-rasm.** *Erysiphe platani* – *Platanus orientalis*: A-gerbariy namunasi; B, C –kasallangan barglar; D, E, F, G, H – konidiya va konidiaforalari

Dissertatsiyaning uchinchi “**Yuksak o‘simliklar patogen mikromitsetlarining ekologiyasi**” deb nomlangan bobida patogen mikromitsetlar xo‘jayin o‘simliklarning tur, turkum va oilalarida tarqalishi, zamburug‘larning yangi xo‘jayin o‘simliklari, mavsumiy rivojlanishi, tik mintaqalar bo‘yicha tarqalishi yoritilgan.

Bobning birinchi bo‘limida patogen mikromitsetlar xo‘jayin o‘simliklarining taksonomik guruhlari bo‘yicha tarqalishi tahlil qilingan. Ular havza yuksak


o'simliklarining 53 oila 167 turkum 324 turida turli kasalliklarni keltirib chiqarishi ma'lum bo'ldi. Mikromitset turlarining uchrashi bo'yicha yetakchi xo'jayin o'simliklarni *Rosa ecae* (6 tur), *Prunus bucharica* (6) turlari tashkil etdi. Turkumlarda bu ko'rsatkich *Rosa* 9 tur (umumiy mikromitsetlarning 3,27% ini), *Prunus* va *Astragalus* 8 (2,90%) larda qayd etildi. Mazkur holatni, *Rosa* hamda *Prunus* turkumi vakillari tadqiqot hududi bo'ylab keng tarqalganligi, *Astragalus* turkumi esa havzada turlar xilma-xilligi bo'yicha eng yuqori o'rinda turishi bilan asoslash mumkin (Хасанов и др., 2013). Xo'jayin o'simlik oilalarida patogen mikromitset turkumlarining o'rtacha soni 1,43 ga teng. 43 oilada turkumlar soni o'rtachadan yuqori (2-21 tagacha). Mikromitset turlarining oilalardagi o'rtacha soni 5,18 ga teng, 12 oila vakillarida turlar soni o'rtachadan yuqori (6-40) bo'lib, umumiy mikromitsetlarning 73,81% ini tashkil etadi. Mikromitset turlari soni bo'yicha yetakchi oilalar sifatida Rosaceae (40 tur 14,54%), Fabaceae (37 tur 13,45%), Asteraceae (36 tur 13,09%), Poaceae (24 tur 8,72%) qayd etildi. Bu holatni mazkur oilalarga mansub o'simlik turlari Zominsuv havzasi florasining 34% dan (Botirova 2012) 44% gacha qismini tashkil etishi bilan izohlash mumkin (Эсанкулов 2012).

Bobning ikkinchi bo'limida patogen mikromitsetlarning yangi xo'jayin o'simliklari haqida ma'lumotlar keltirilgan. Gerbariy namunalarining qiyosiy tahlillari, sohaga oid ilmiy adabiyotlar va internet ma'lumotlarini o'rganish asosida Zominsuv havzasida uchragan patogen mikromitsetlarning 2 bo'lim 3 sinf 6 tartib 6 oila 13 turkumga mansub 25 tur va 3 formasi xo'jayin o'simliklarning 16 oila 22 turkum 24 turida ilk bor uchraganligi qayd etildi. Jumladan, *Aecidium tulipae* Kom. – *Tulipa korolkowii* Regel, *Aecidium lappulae* Thüm. – *Pseudoheterocaryum rigidum* (A.DC.) Kaz.Osaloo & Saadati.), *Erysiphe cruciferarum* Opiz ex L. Junell. – *Descurainia sophia* (L.) Webb ex Prantl., *Erysiphe cichoracearum* f. *tanacetii* (Jacz). Golov. – *Tanacetopsis mucronata* (Regel & Schmalh.) Kovalevsk., *Leveillula boraginacearum* f. *lappulae* (Jacz). Golov. – *Pseudoheterocaryum szovitsianum* (Fisch. & C.A.Mey.) Kaz.Osaloo & Saadati, *Phyllosticta bromi* Potebnia. – *Bromus oxyodon* Schrenk., *Puccinia bromina* Erikss. – *Bromus inermis* Leyss., *Puccinia eremuri* Kom. – *Eremurus aitchisonii* Baker., *Septoria viciae* (Lib.) Westend. – *Vicia angustifolia* Reichard., *Septoria silenes* Ellis & G. Martin. – *Silene brahuica* Boiss., *Septoria astragali* Desm. – *Astragalus dendroides* Kar. & Kir. va boshqalar.


Yangi xo'jayin o'simliklar orasida *Tulipa korolkowii* va *Eremurus aitchisonii* O'zbekiston Respublikasining Qizil kitobiga kiritilgan (Xasanov, 2019). *Tulipa korolkowii* da *Aecidium tulipae* ning spermogoniy hamda etsiy bosqichlari kuzatildi. Etsiyalar bargning har ikki tomonida aylanasimon shaklda sariq apelsin rangdagi o'simtalar ko'rinishida hosil bo'ladi (2-rasm). O'zbekistonda olib borilgan mikologik tadqiqotlarda faqat *T. bifloriformis* Vved. da zang kasalligini keltirib chiqaruvchi *Puccinia tulipae* Schroet (Buxoro viloyati 1956, 1962) va *Aecidium tulipae* Kom. (Toshkent viloyati 1954) lar aniqlangan (Рамазанова и др. 1986).

Bobning uchinchi bo'limida patogen mikromitsetlarning tik mintaqalar bo'yicha tarqalishi haqida ma'lumotlar berilgan. Tadqiqotlarga ko'ra, tog'

mintaqasida patogen mikromitsetlarning 177 turi (64,36%), adir 129 tur (46,90%), yaylov 80 tur (29,09%), cho‘l mintaqasida esa 61 tur (22,18%) tarqalganligi qayd etildi (3-rasm).



**2-rasm.** *Aecidium tulipae* – *Tulipa korolkowii*: A,B –zararlangan barglar, D – etsiosporalar




**3-rasm.** Patogen mikromitsetlarning tik mintaqalar bo‘yicha tarqalishining miqdoriy ko‘rsatkichi

Bu holatni, tadqiqot hududining tog‘ mintaqasi o‘simliklar xilma-xilligi bo‘yicha boshqa balandlik mintaqalariga nisbatan yetakchilik qilishi va mazkur mintaqada patogen mikromitsetlar rivojlanishi uchun qulay iqlim sharoitlarning mavjudligi bilan izohlash mumkin.

Olib borilgan tadqiqotlar davomida, *Ascochyta alhagi*, *Albugo candida*, *Puccinia asparagi*, *P. xanthii* choʻl mintaqasi, *Ascochyta woronowiana*, *Dilophospora alopecuri*, *Neosetophoma samarorum*, *Puccinia malvacearum*, *Phyllosticta destructiva* adir mintaqasi, *Aecidium tulipae*, *Aecidium solenanthi*, *Aecidium thalictri-flavi*, *Phyllosticta campanulae*, *Uromyces acantholimonis*, *Golovinomyces cichoracearum*, *Phoma tragopogonis*, *Sphaerotheca fuliginea* togʻ va yaylov mintaqalari uchun, *Septoria convolvuli*, *Stigmina carpophila*, *Alternaria alternata*, *Blumeria graminis*, *Puccinia graminis*, *Phragmidium tuberculatum*, *Erysiphe convolvuli*, *Diplocarpon rosae*, *Erysiphe cichoracearum* va boshqalar barcha balandlik mintaqalari uchun xos ekanligi qayd etildi.

Bobning toʻrtinchi boʻlimida patogen mikromitsetlarning mavsumiy rivojlanishi tahlil qilingan. Bunga koʻra, Zominsuv havzasida patogen mikromitsetlar rivojlanishi uchun eng qulay boʻlgan muddat may, iyun va iyul oylariga toʻgʻri kelishi qayd etildi, ushbu oylarda mikromitsetlarning 223 (70,34%) tur va tur xillari aniqlandi (4-rasm).



**4-rasm.** Patogen mikromitsetlarning mavsumiy rivojlanishi

Mazkur holatni, xoʻjayin oʻsimlik turlarining vegetatsiyasi muddatlari va zamburugʻlar rivojlanishi uchun qulay iqlim sharoitlari bilan izohlash mumkin.

Patogen mikromitsetlarning mavsumiy rivojlanishida un-shudring va zang kasalligini qoʻzgʻatuvchi mikromitsetlarda bir qator oʻziga xosliklar kuzatildi. Jumladan, *Blumeria*, *Erysiphe*, *Podosphaera* turkumi vakillarining rivojlanishi mart oyining ikkinchi yarmidan choʻl, aprel oyining oxiridan adir, may-iyun oylarida togʻ va iyul oyidan boshlab yaylov mintaqalarida boshlanadi. *Leveillula* turkumi issiqsevar kserofil xarakterga ega, shu sababli mavsumiy rivojlanishi choʻl va adir mintaqalarida may-iyun, togʻ va yaylov mintaqalarida esa iyul oyidan boshlanishi qayd etildi. *Sphaerotheca* turlari biroz salqin sharoitlarga moslashgan, tadqiqotlar davomida mazkur turkum vakillari asosan toʻgʻ mintaqasida iyun-sentyabr oylari oraligʻida qayd etildi. *Phyllactinia* turkumi vakillari namsevar mezofil hisoblanadi, mavsumiy rivojlanishi yuqoridagi turkumlarga nisbatan kechroq avgust-oktyabr oylariga toʻgʻri keladi.

Ikki xoʻjayinli zang zamburugʻlarining mavsumiy rivojlanishini birinchi va ikkinchi rivojlanish davrlariga ajratish mumkin. Jumladan, *Gymnosporangium* va

*Puccinia* turkumining ayrim turlarida birinchi davr oraliq xo‘jayin o‘simliklarida aprel-iyul oylarida, ikkinchi davr iyul oyidan boshlanib asosiy xo‘jayin o‘simliklarning vegetatsiyasi davomiyligiga mos ravishda kechishi qayd etildi.

Dissertatsiyaning to‘rtinchi **“Zominsuv havzasi yuksak o‘simliklarining zamburug‘li kasalliklari”** deb nomlangan bobida fitopatogen mikromitsetlarni xo‘jayin o‘simliklarini zararlash darajalari hamda tadqiqot hududida asosiy o‘rmon hosil qiluvchi *Juniperus* L. turlariga kuchli zarar yetkazuvchi zang kasalligiga qarshi olib borilgan profilaktik kurash choralari haqida ma‘lumotlar bayon etilgan. Bobning birinchi bo‘limida yuksak o‘simliklarning zamburug‘li kasalliklari va ularning xo‘jayin o‘simliklar bilan munosabati yoritilgan.


Aniqlangan patogen mikromitsetlar xo‘jayin o‘simliklarning bir turkum vakillarini zararlovchi stenotop hamda ikki va undan ortiq turkum vakillarini zararlash xususiyatiga ega bo‘lgan evritop guruhlariga ajratib tahlil qilindi. Bunga ko‘ra, yuksak o‘simliklarda patogenlik qiluvchi mikromitsetlarning 28 turi evritop, 247 tur 40 forma va 2 varietatsiyasi stenotop guruhlariga mansub ekanligi qayd etildi. Bu holatni, patogen mikromitsetlarning evolyutsion rivojlanish jarayonida xo‘jayin o‘simlik turlariga tor doirada ixtisoslashganligi bilan izohlash mumkin (Cai et al., 2011, Hasanov 2015, Masolova va boshq., 2021).

Aniqlangan patogen mikromitsetlarni xo‘jayin o‘simliklarning hayotiy shakllari bo‘yicha tarqalishi tahlil qilinganda eng yuqori ko‘rsatkich 175 tur va tur xillari bilan ko‘p yillik o‘simliklarda kuzatildi, keyingi o‘rinlarda daraxtlarda-49, bir yillik o‘simliklarda-41, butalarda-37, ikki yillik o‘simliklarda-10 va yarim butalarda-5 tur qayd etildi. Mazkur holatni, Zominsuv havzasida ko‘p yillik o‘simlik turlari boshqa hayotiy shaklga ega bo‘lgan o‘simlik turlariga nisbatan yetakchilik qilishi bilan izohlash mumkin (Botirova 2012).

Bobning ikkinchi bo‘limida Zominsuv havzasida asosiy o‘rmon hosil qiluvchi *Juniperus seravschanica* Kom., *J. semiglobosa* Regel, *J. turkestanica* Kom. turlarining patogen mikromitsetlarini tarqalishi va xavflilik darajasi yuqori bo‘lgan zamburug‘ turlariga qarshi profilaktik kurash choralari haqida ma‘lumotlar keltirilgan. Olib borilgan tadqiqotlar davomida, *Juniperus* turlarida zang kasalligini keltirib chiqaruvchi *Gymnosporangium turkestanicum*, *G. confusum*, *G. fusisporum* va turli dog‘lanish kasalliklarini keltirib chiqaruvchi *Metacapnodium juniperi*, *Microthyrium juniperi*, *Diplodia juniper* kabi mikromitsetlar uchradi. Kuzatuvlarga ko‘ra, tadqiqot hududida zang kasalligi *Juniperus* vakillariga kuchli zarar yetkazishi, dog‘lanish kasalligini keltirib chiqaruvchi mikromitsetlar esa shartli parazit organizmlar bo‘lib, ularning zarari namgarchilik yuqori bo‘lgan aprel-may oylarida kuchliroq, yoz faslida esa kam uchraydi.

*Gymnosporangium* turkumi vakillari rivojlanish bosqichlari davomida sistematik jihatdan farqlanuvchi ikki xo‘jayin o‘simlik turlarini zararlaydi. Patogenning asosiy xo‘jayin (*Juniperus*) o‘simliklarida teliya, oraliq xo‘jayin (*Cotoneaster* Medik – *Gymnosporangium fusisporum*), (*Crataegus* L. – *Gymnosporangium confusum*), (*Sorbus* L. – *Gymnosporangium turkestanicum*) o‘simliklarida esa spermogoniy va etsiy bosqichlari o‘tadi. *Juniperus* turkumi vakillarini zang kasalligidan himoya qilish chora-tadbirlarini ishlab chiqishda

tadqiqot hududida *Gymnosporangium fusisporum*, *G. confusum*, *G. turkestanicum* turlarining asosiy xo‘jayin o‘simliklarini zararlash xususiyatiga ega bo‘lgan etsiyosporalarining hosil bo‘lish nuqtalarini aniqlash muhim ahamiyat kasb etadi. Olib borilgan tadqiqotlarga ko‘ra, *Gymnosporangium* turkumi vakillarining etsiyosporalarining asosiy qismi Yettikechuv, Usmonlisoy, O‘rikli soy, Irg‘ayli soy va Sharsharali soy hududlarida shakllanishi hamda butun havza bo‘ylab tarqalishi qayd etildi (5-rasm).




**5-rasm.** *Gymnosporangium* turkumi turlarining etsiy bosqichlarining asosiy qismi hosil bo‘ladigan hududlar

Tadqiqot hududida *Gymnosporangium* turkumi vakillarining oraliq xo‘jayin o‘simliklarining tarqalish areallarining kengligi va dorivorlik xususiyatlari hisobga olinganda *Crataegus* turlarining ahamiyati yuqori o‘rinda turadi. Y.Sh. G‘afforov (2005) keltirishicha zang kasalligi oqibatida do‘lana hosili 70% gacha nobud bo‘lishi mumkin.

Ta’kidlash joizki, *Gymnosporangium confusum* ning qishlovchi (teliya) bosqichi asosiy xo‘jayin o‘simlik (archa) larning zararlangan novdalarida o‘tadi. Teliya bosqichi qishlovchi bosqich bo‘lganligi sababli teliosporalari qalin qobiq bilan o‘ralgan, tashqi muhitning noqulay sharoitlariga va fungitsidlarga chidamliligi yuqori bo‘ladi. Qulay muhit bo‘lganda teliosporalarda hosil bo‘lgan bazidiosporalar oraliq xo‘jayin o‘simliklariga o‘tadi.

Shu sababli, maqsadli dala tadqiqotlari davomida *G. confusum* ning oraliq xo‘jayin o‘simlik (do‘lana) lardagi mavsumiy rivojlanish bosqichlariga alohida e’tibor qaratildi. Olib borilgan kuzatuvlarga ko‘ra, tadqiqot hududida *G. confusum* bazidiosporalari hosil bo‘lishi uchun optimal bo‘lgan muddat aprel oyining birinchi-ikkinchi dekadasiga, oraliq xo‘jayin o‘simliklarda spermogoniylar hosil bo‘lishi may oyining ikkinchi dekadasiga, etsiyalar hosil bo‘lishi iyun-iyul oylariga to‘g‘ri keladi.

Kasallikni yuqish zanjirini uzish uchun dastlabki profilaktik tadbir sifatida mart oyining 10-kunida oraliq xo'jayin o'simliklarga 3% li Bordo suyuqligi bilan ishlov berildi. Aprel oyining 12-kunida (zang bilan kasallangan asosiy xo'jayin o'simliklarning zararlangan novdalarida hosil bo'lgan bazidiosporalar oraliq xo'jayin o'simliklarga migratsiya bo'lish vaqtida) 1% li Bordo suyuqligi bilan, may oyining 15-kunida (oraliq xo'jayin o'simlik barglarida spermagoniyalar hosil bo'lish vaqtida) bir marta va iyun oyining 14-kunida (oraliq xo'jayin o'simliklarning zararlangan qismlarida etsiyalar hosil bo'lishi vaqtida) ikkinchi marta Titri  $1 \cdot 10^9$  KOE/ml bo'lgan Fitosporin-M. suyuq mikrobiologik preparatdan Titri  $0,0075 \cdot 10^9$  KOE/ml bo'lgan ishchi eritma tayyorlanib ishlov berildi (6-rasm).



**6-rasm.** *Gymnosporangium confusum* turining asosiy va oraliq xo'jayin o'simliklari orasidagi kasallikni yuqish zanjirini uzish bo'yicha profilaktik tizim

Uslubning texnik samaradorligi (Чумаков и др. 1973) formulasi orqali aniqlandi va bu ko'rsatkich 70,30% ni tashkil etdi.

## XULOSALAR

“Zominsuv havzasi yuksak o‘simliklarining patogen mikromitsetlari” mavzusidagi falsafa doktori dissertatsiya bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar natijasida quyidagi xulosalar taqdim etildi:

1. Zominsuv havzasi yuksak o‘simliklari patogen mikromitsetlarining taksonomik tarkibi 3 bo‘lim, 8 sinf, 18 tartib, 36 oila, 76 turkum, 275 tur, 40 forma va 2 variatsiyadan iborat. Tadqiqot hududi patogen mikromitsetlari taksonomiyasi Markaziy Osiyo va O‘zbekiston mikrobiotasiga xos xususiyatlarni namoyon etadi.

2. Zominsuv havzasi mikrobiotasi turkum va turlari tarkibining o‘xshashlik koeffitsiyenti Nurota qo‘riqxonasi bilan turkumlarda 0,51%, turlarda 0,41%, Namangan viloyati bilan turkumlarda 0,30%, turlarda 0,25%, Surxondaryo viloyati bilan turkumlarda 0,27%, turlarda 0,23% ni tashkil etadi. Zominsuv havzasining Nurota qo‘riqxonasi mikrobiotasi o‘rtasidagi yaqinlik o‘simliklar xilma-xilligidagi o‘xshashlik bilan izohlanadi.

3. Xo‘jayin o‘simliklarda patogen mikromitsetlar turlari soni bo‘yicha yetakchilik hududdagi polimorf oila va turkumlarda kuzatiladi.

4. Patogen mikromitsetlarning 25 tur va 3 formasi 24 turga mansub yangi xo‘jayin o‘simliklarda aniqlandi. O‘zbekiston hududida Qizil kitobga kiritilgan *Tulipa korolkowii* va *Eremurus aitchisonii* larda zang, *Platanus orientalis* da unshudring kasalliklarini qo‘zg‘atuvchi mikromitsetlar ilk bor qayd etildi. Bu holat patogen mikromitsetlarni xo‘jayin o‘simliklar diapazonini kengaytirayotganligi, yangi ozuqa muhitlariga moslashib borishi va invaziyasi bilan asoslanadi.

5. Tadqiqot hududida tog‘ mintaqasi barcha guruhga mansub mikromitsetlar rivojlanishi uchun qulay bo‘lgan mintaqa hisoblanib, bu holat ushbu hududdagi o‘simliklar qoplamidagi xilma-xillik va mikromitsetlar rivojlanishi uchun qulay iqlim sharoitlari bilan asoslanadi.

6. Zominsuv havzasida asosiy o‘rmon hosil qiluvchi *Junipers L.* turlarida zang va dog‘lanish kasalliklarini keltirib chiqaruvchi 6 tur patogen mikromitsetlar uchraydi. Shundan zang kasalligini qo‘zg‘atuvchi *Gymnosporangium* turlari katta zarar keltiradi. Kasallik o‘chog‘i sifatida etsiy bosqichining shakllanishi asosan Usmonlisoy, Yettikechuv, O‘rikli soy, Irg‘aylisoy va Sharsharalisoy hududlariga to‘g‘ri keladi.

7. Zang kasalligini qo‘zg‘atuvchi *Gymnosporangium confusum* turini yuqish zanjirini uzish orqali unga qarshi yangi profilaktik kurash uslubi ishlab chiqildi. Ushbu uslub o‘rmon xo‘jaliklari va muhofaza etiladigan tabiiy hududlarda foydalanish uchun tavsiya etiladi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.02/30.12.2019.В.39.01 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ  
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ ИНСТИТУТЕ БОТАНИКИ**

---

**ИНСТИТУТ БОТАНИКИ**

**ОРТИКОВ ИСЛОМ ЗИЁДУЛЛА УГЛИ**

**ПАТОГЕННЫЕ МИКРОМИЦЕТЫ СОСУДИСТЫХ РАСТЕНИЙ  
БАССЕЙНА РЕКИ ЗААМИНСУ**

**03.00.05–Ботаника**

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD)  
ПО БИОЛОГИЧЕСКИМ НАУКАМ**

**Ташкент – 2023**

**Тема диссертации доктора философии (PhD) по биологическим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Кабинете Министров Республики Узбекистан за номером B2021.3.PhD/B631**

Диссертационная работа выполнена в Институте ботаники.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский и английский (резюме)) размещён на веб-странице Научного совета ([www.botany.uz](http://www.botany.uz)) и Информационно-образовательном портале «ZiyoNet» по адресу ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz).)

**Научный руководитель:** **Мустафаев Илёр Мурадуллаевич**  
доктор философии по биологическим наукам

**Официальные оппоненты:** **Рахимова Ташханим**  
доктор биологических наук, профессор

**Камилов Шухрат Ганиевич**  
кандидат биологических наук, доцент

**Ведущая организация:** **Самаркандский государственный**

Защита диссертации состоится «26» декабря 2023 года в 14<sup>00</sup> часов на заседании Научного совета DSc.02/30.12.2019.Б.39.01 при Институте Ботаники. (Адрес 100125, г.Ташкент, ул.Дўрмон йўли, д.32. Зал заседаний института Ботаники. Тел.: (+99871) 262-37-95, факс (+99871) 262-79-38, E-mail: [botany@academy.uz](mailto:botany@academy.uz))

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Института ботаники (зарегистрировано за № 57). Адрес: 100125, г.Ташкент, ул.Дўрмон йўли, д.32., Тел.: (+99871) 262-37-95.

Автореферат диссертации разослан « 15 » декабря 2023 года.  
(реестр протокола рассылки № 8 от « 15 » декабря 2023 года)



*[Handwritten signature]*

*[Handwritten signature]*

*[Handwritten signature]*

**К.Ш.Тожибаев**  
Председатель научного совета по присуждению учёных степеней, д.б.н., академик

**У.Х. Қодиров**  
Ученый секретарь научного совета по присуждению учёных степеней, PhD, старший научный сотрудник

**Ф.И. Каримов**  
Председатель научного семинара при научном совете по присуждению учёных степеней, д.б.н.

## **ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))**

**Актуальность и востребованность темы диссертации.** Глобальные изменения климата в мире, повышение уровня опустынивания и неправильное отношение человека к природе оказывают негативное влияние на мир растений. Такая ситуация приводит к возникновению новых видов заболеваний в результате перехода некоторых сапротрофных микромицетов, развитие которых органически связано с растительным миром, в паразитическую форму или адаптации патогенных микромицетов к новым растениям-хозяевам. Это особенно важно, поскольку наблюдается больше на охраняемых природных территориях, богатых растительным разнообразием.

Демографический рост населения планеты, увеличение спроса на продукты питания и натуральные лекарственные средства повышают необходимость рационального использования не только сельскохозяйственных культур, но и лекарственных и пищевых растений, в отраслях экономики.

Сегодня на основе изучения патогенных микромицетов сельскохозяйственных культур проводится множество исследований, направленных на разработку эффективных мер борьбы с фитопатогенными грибами. Однако, из-за отсутствия подобных исследований на охраняемых природных территориях эти территории становятся очагами различных заболеваний, вызываемых фитопатогенными микромицетами.

В настоящее время большое внимание уделяется охране флоры на охраняемых природных территориях нашей Республики, их рациональному использованию в отраслях экономики, разработке мер борьбы с их паразитическими организмами. В Указе Президента Республики Узбекистан «О мерах по организации деятельности государственных органов в области охраны окружающей среды и экологического контроля» определены такие важные задачи.<sup>1</sup> определены такие важные задачи, как «...конкретные механизмы сохранения, восстановления и воспроизводства биоразнообразия...».

Поэтому большое научное и практическое значение имеет определение видового состава патогенных микромицетов высших растений бассейна р. Зааминсу, обоснование их сезонного развития и распространения в регионах, изучение механизмов поражения растений-хозяев грибами, а также разработать научно обоснованные меры борьбы с видами с высоким уровнем вредоносности.

Данное диссертационное исследование в определенной степени служит выполнению задач, предусмотренных в Указе Президента Республики Узбекистан ПП-4861 от 13 октября 2020 года «О мерах по дальнейшему совершенствованию деятельности государственной службы по карантину растений», Постановления Кабинета Министров Республики Узбекистан от 7 ноября 2018 года № 914 «О ведении государственного учета объектов

---

<sup>1</sup> Постановление Президента Республики Узбекистан от 30 декабря 2021 года PQ-76 «О мерах по организации деятельности государственных органов в области охраны окружающей среды и экологического контроля

